

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BADIY ASARLARNI O‘RGATISH ORQALI
O‘QUVCHILARNING BOG‘LANISHLI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Orzuyeva Sitorabonu Ilxomjon qizi

Buxoro Davlat pedagogika instituti
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi sirtqi bo‘limi 4-kurs talabasi.

Abdullayeva Feruza Nurullayevna

Fan o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15075174>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bog‘lanishli nutqini rivojlanirishda badiiy asarlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. O‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish jarayonida badiiy matnlar ustida ishslash, tahlil qilish hamda qayta hikoyalash metodlarining samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, adabiy-badiiy materiallardan foydalananish orqali muloqot madaniyatini rivojlanirish, so‘z boyligini oshirish va ijodiy tafakkurni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada boshlang‘ich sinflarda bog‘lanishli nutqni rivojlanirishga doir ilg‘or pedagogik yondashuvlar hamda samarali metodlar tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: nutq o‘stirish, matn ustida ishslash, og‘zaki va yozma nutq, muloqot, so‘z ma’nosi, nutq.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение художественных произведений в развитии связной речи учащихся начальных классов. Рассматривается эффективность работы с художественными текстами, их анализа и пересказа в процессе формирования устной и письменной речи учащихся. Особое внимание уделяется вопросам развития культуры общения, обогащения словарного запаса и формирования творческого мышления посредством использования литературно-художественного материала. В статье предлагаются передовые педагогические подходы и эффективные методы развития связной речи у младших школьников.

Ключевые слова: речь развитие, работа над текстом, устная и письменная речь, коммуникация, значение слова, речь.

Abstract. This article analyzes the role and significance of literary works in developing the coherent speech of primary school students. It examines the effectiveness of working with literary texts, including their analysis and retelling, in the process of forming students' oral and written speech. Special attention is given to the development of communication culture, vocabulary enrichment, and the formation of creative thinking through the use of literary and artistic

materials. The article suggests advanced pedagogical approaches and effective methods for developing coherent speech in primary school students.

Keywords: speech development, working on the text, oral and written speech, communication, word meaning, speech.

Ta’lim – bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatidir. Bu jarayonda shaxsnинг intellektual rivojlanishi, bilimi va tarbiyasi shakllanadi. Darslar davomida o‘qituvchi o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa ularni o‘zlashtirib, amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar bilimni qabul qilish, uni qayta ishlash va amaliyotga tatbiq etishda turli yondashuvlardan foydalanadilar. Ta’lim jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali yanada samarali tashkil etiladi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida amaliy jihatdan turli janrlarga mansub asarlar o‘rganiladi. Darsliklarga asosan hikoya, she’r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoqlar kiritilgan bo‘lib, shuningdek, ilmiy-ommabop matnlar ham o‘qitiladi. Har bir janr o‘ziga xos tuzilish va uslubga ega bo‘lib, ularning o‘quvchilarga ta’siri ham turlicha bo‘ladi.

She’riy asarlar hikoya matnidan farqli tuzilishga ega bo‘lsa, ertaklar she’rlarga nisbatan boshqa uslubda yoziladi. Ilmiy-ommabop maqolalar esa masallardan tubdan farq qiladi.

Topishmoqlar predmet va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik orqali tushunilsa, maqollar esa hayotiy tajriba va misollar asosida izohlanadi¹. Shu sababli, turli janrdagi asarlarni o‘qitishda o‘qituvchi ularga mos usullarni tanlashi lozim.

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayoni o‘quvchilarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ulardan biri bog‘lanishli nutqni rivojlantirishdir. Badiiy asarlarni o‘qish va tahlil qilish esa bu jarayonda muhim vositalardan biridir. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda badiiy asarlarning o‘rni, usullar va samaradorlik omillari yoritiladi. Badiiy asarlar o‘quvchilarga boy lug‘at zaxirasini taqdim etish bilan birga, ularning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi va nutq madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Asosan, quyidagi jihatlar bog‘lanishli nutqni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi: til boyligini oshirish – badiiy matnlarda uchraydigan yangi so‘z va iboralar o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytiradi, nutqning izchilligi – asarlardagi hikoya tuzilishini

¹ Bekniyazova N. Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratishni o‘rgatish metodikasi (ta’lim o‘zbek va qoraqlapoq tillarida olib boriladigan mifik tabolar misolida): Monografiya. –T.: Fan va texnologiyalar, 2012. –160 b.

tahlil qilish orqali o‘quvchilar mantiqiy fikrlash va nutqini izchil bayon etishni o‘rganadi, ijodiy tafakkurni rivojlantirish – badiiy asarlar asosida yozma va og‘zaki ijodiy ishlar bajarish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan ishlashda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: matn tahlili va muhokamasi – o‘quvchilar asar mazmunini tushunishlari va uni qayta hikoya qilishlari uchun savol-javob usuli qo‘llaniladi, personajlar xarakteri va voqealar rivoji haqida bahs yuritish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o‘rganadilar, rollar bo‘lib o‘qish va sahnalashtirish – asardagi qahramonlarning nutqini ifodalab o‘qish orqali o‘quvchilar nutq ohangiga e’tibor qaratadi, sahnalashtirish orqali voqealar ketma-ketligini anglash va nutqni mantiqiy rivojlantirish imkoniyati yaratiladi, ijodiy yozuv mashg‘ulotlari – badiiy asar qahramonlari nomidan xat yozish, voqeani davom ettirish yoki yakunini tasvirlash kabi topshiriqlar o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda samarali bo‘ladi, grafik organayzerlardan foydalanish – klasterlar, konseptual xaritalar yoki jadvallar yordamida asar mazmuni qisqacha ifodalananadi va asosiy g‘oyalari o‘quvchilarga aniq tushuntiriladi. Badiiy asarlar orqali o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirish nafaqat ularning lingistik qobiliyatlarini, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham oshirishga xizmat qiladi². O‘qituvchilar mazkur metodlarni samarali qo‘llash orqali ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishlari mumkin. Natijada o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalari oshib, mustaqil fikrlash va fikrlarini mantiqiy izchil bayon qilish qobiliyatlarini rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlarni o‘rgatish orqali o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirish muhim pedagogik jarayon bo‘lib, bu ularning so‘z boyligini kengaytirish, aniq va izchil fikr bildirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hamda o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ifodalash qobiliyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Turli janrlarga mansub badiiy matnlar – hikoya, she’r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoqlar orqali o‘quvchilarning til va nutqiy ko‘nikmalari boyitiladi.

Shunday qilib, badiiy asarlarni o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi.

O‘qituvchilarning to‘g‘ri metod va texnologiyalarni qo‘llashi, dars jarayonida interfaol usullardan foydalanishi o‘quvchilarning badiiy matnlarni chuqur tushunishiga, o‘z fikrlarini ifodalashga va ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

² Bakiyeva X.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta’lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi: Ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. –TDPU. 2019. –47 b.

Shu sababli, boshlang‘ich ta’limda badiiy asarlarni o‘rgatish jarayoni o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirish bilan birga, ularni ijodkor, mustaqil fikrlovchi va bilimdon shaxs sifatida shakllantirishga ham zamin yaratadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar “2022 — 2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz
2. Babayeva D.R. Nutq o‘sirish metodikasi (tevarak-atrofni o‘rganish misolida) –T.: Fan va texnologiya, 2009. –128 b.
3. Bakiyeva X.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta’lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi: Ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. –TDPU. 2019. –47 b.
4. Bekniyazova N. Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratishni o‘rgatish metodikasi (ta’lim o‘zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. –T.: Fan va texnologiyalar, 2012. –160 b.
5. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti // Boshl. ta’l. jurnali. Toshkent, 2005. №5. 5, 6, 8-9-b.
6. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi o‘quv dasturi // Boshl. ta’l. jurnali. Toshkent, 2005. №5. 21- 33 – b.